

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

Iyul №7, 2026

Агробизнес, наука и
технология

AGROBIZNES FAN VA TEXNOLOGIYALAR

Agribusiness, science and
technology

№ 083688



ISSN:
3060-5245

Toshkent-2026

Platform &
workflow by
OJS / PKP

BOSH MUHARRIR

Oblomuradov Narzullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.

Bosh muharrir o'rinbosarlari:

Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Farmonov To'liqin Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.

Muharrir:

Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.

Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:

Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)

Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)

Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))

Daiva Makutenene – professor, (Vitautes Magnus universiteti, Litva)

Xaitboyeva Nargiza Alikulovna – i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)

Tahrir hay'ati:**08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:**

Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;

Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;

Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;

Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;

Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;

Boltayev Abror Sayitmuradovich – i.f.d. (DSc), dotsent;

Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n. professor;

Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;

Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;

Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD);

Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;

Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Javlijev Nuriddin Bektemir o'g'li – i.f.f.d. (PhD).

06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:

Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);

Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);

Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);

Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);

Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;

Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li – q.x.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., katta ilmiy xodim;

Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n. professor;

Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);

Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;

Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS

Toshkent davlat agrar
universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.

Jurnalning telegram manzili:

t.me/agrobiznes_elektronjurnal

E-mail: licht-1989@mail.ru

Jurnalning rasmiy sayti:

<https://www.agrobiznesjournal.uz>

Tel: +(998) 93 439 30 00

Jurnalning ilmiyligi:

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 30.11.2024-yildagi
№364/5-sonli qarori bilan
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari
bo'yicha, 08.05.2025-yildagi
№370/5-sonli qarori bilan
06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari
bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy
ilmiy natijalarini chop etish
tavsiya etilgan milliy ilmiy
nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

Elektron nashr, 223-sahifa.
2026-yil, iyul.



MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLARI

MATRASULOVA FERUZA BAXODIROVNA

Sho'rlangan marginal yerlarda sholi yetishtirishning iqtisodiy va agroekologik jihatlari (Xorazm viloyati misolida).....9

KOZIMJONOV ABRORBEK

Suv ta'minot va hudud gaz ta'minot korxonalarida xalqaro standartlarga muvofiq daromad va xarajatlarni tan olish masalalari.....16

KALIMULLINA NARGIZA VLADIMIROVNA

Sanoat sohasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish.....24

RAXMATULLAYEV JALOLIDDIN MUXIDDINOVICH

Davlat xaridlarini samarali tashkil etish orqali byudjet mablag'larini tejash yo'llari.....30

ISMAYLOV SIROJIDDIN ISOQOVICH

O'zbekistonda yuridik shaxslar tomonidan foyda solig'ini hisoblab chiqarish va to'lash tartibi.....42

TURGUNOV ABDULLOH QUDRATBEK O'G'LI

Korxona faoliyatining iqtisodiy samaradorligini baholashda foyda va rentabellik ko'rsatkichlari.....49

ABDUBOQIYEV MUXAMMAD SHAROFITDINOVICH

Efficiency indicators of financial management mechanisms in joint-stock companies.....55

ZOHIDOV JAMSHID BOTIRXONOVICH

Xizmat ko'rsatish korxona menejmentida axborot texnologiyalarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish.....63

ACHILOVA FIRUZA KURBANOVNA, PARDAYEV ORIFJON

CHARSHAMIYEVICH
Qashqadaryo viloyatida raqamli infratuzilma va sanoat ishlab chiqarishning hozirgi holati tahlili.....71

UMAROVA ROXILAXON XALILJON QIZI

Mahalla tizimida madaniy loyihalarni boshqarishning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.....80

ATABAYEVA KAROMAT RAJABOVNA

Demografik jarayonlarni o'rganishning nazariy asoslari.....88

URALOV FARRUH ABDURAZZOQOVICH

Hududiy klaster siyosatini takomillashtirish yo'nalishlari.....95

G'IYOSOV ILXOM KARIMOVICH

Korporativ boshqaruv mexanizmlarining qurilish korxonalarida strategik qarorlar qabul qilish jarayoniga ta'siri.....109

ANVAROVA LOBARXON SHERZOD QIZI

Sun'iy intellekt asosida strategik va operatsion boshqaruvni optimallashtirish mexanizmlari.....119





SAYIPOV BEGZOD RAHIMOVICH

Valyuta kursi barqarorligini ta'minlashda monetar siyosat vositalarining roli va uning mehnat bozori dinamikasiga ta'siri.....131

KARIMOV INOMJON ORTIKBAEVICH

Qurilish sanoati korxonalarida investitsiyalarni jalb qilish mexanizmini boshqarishning nazariy asoslarini takomillashtirish.....140

ERKAYEV AKROM NORMUXAMMADOVICH

Milliy iqtisodiyotni sanoatlashuvning nazariy evolyutsiyasi.....150

AXMEDOVA NILUFAR SHUHRATOVNA, RISBEKOVA DILFUZAXON

JALOLIDIN QIZI

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda hududiy jihatlar hamda davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlari.....163

SHARIPOV G'ULOMJON QARSHI O'G'LI

Yashil iqtisodiyot sharoitida hududiy boshqaruvning xorijiy tajribasi va O'zbekistonda qo'llash istiqbollari.....169

SAPAROV ILYOS XUDAYMURATOVICH

Jamoatchilik ishonchi va ijro mas'uliyati: «Tashabbusli byudjet»ning yangi bosqichdagi vazifalari.....179

MURTOZAYEVA DILNOZA BOBONIYOZ QIZI

O'zbekiston sharoitida oziq-ovqat bozori marketing tadqiqotlarini o'tkazishda raqamlashtirish jarayonining afzalliklari.....184

ТАДЖИЕВА САЙЁРАХОН УРАЛОВНА

Маркетинговая привлекательность Бухарской области и факторы её формирования.....193

G'OFUROV BEKZOD FAYZULLA O'G'LI

Davlat budjeti mablag'laridan foydalanishda moliyaviy nazoratni kuchaytirish yo'llari.....208

USMONOVA MOHIGUL MANSUR QIZI

Yashil iqtisodiyot va ayollar tadbirkorligi rivojlanishining nazariy-konseptual asoslari.....214

ESHQULOVA NASIBA NORMO'MINOVNA

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportini diversifikatsiya qilishning ustuvor yo'nalishlari.....223





QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI EKSPORTINI DIVERSIFIKATSIYA QILISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

ESHQULOVA NASIBA NORMO'MINOVNA

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi
“O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari
va muammolari” ilmiy-tadqiqot markazi mustaqil izlanuvchisi
E-mail: nasibaeshqulova@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksportini diversifikatsiya qilish va eksport salohiyatini oshirish masalalari tahlil qilingan. Tadqiqotda 2010-2024 yillar bo‘yicha 4 raqamli HS kod darajasidagi xalqaro savdo ma‘lumotlari asosida eksport tarkibi, mahsulotlarning xalqaro raqobatbardoshligi hamda istiqbolli tashqi bozorlar baholangan. Tashqi bozorlardagi import talabining barqarorligi variatsiya koeffitsiyenti (CV), import hajmlarining kelgusi dinamikasi ARIMA modeli, mahsulotlarning qiyosiy ustunligi esa Balassa indeksiga (RCA) asosanib aniqlangan. Shuningdek, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksportini geografik va mahsulot tarkibi bo‘yicha diversifikatsiya qilish hamda istiqbolli eksport bozorlari va ustuvor mahsulot yo‘nalishlarini aniqlash bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, eksport diversifikatsiyasi, tashqi bozor, eksport salohiyati, RCA, ARIMA, variatsiya koeffitsiyenti, raqobatbardoshlik, eksport geografiyasi.

Аннотация. В статье рассмотрены вопросы диверсификации экспорта сельскохозяйственной продукции Узбекистана и повышения его экспортного потенциала. В исследовании на основе международных торговых данных по четырёхзначным кодам HS за 2010-2024 годы проведена оценка структуры экспорта, международной конкурентоспособности сельскохозяйственной продукции и перспективных зарубежных рынков. Стабильность импортного спроса на внешних рынках оценена с использованием коэффициента вариации (CV), динамика импортных объёмов спрогнозирована на основе модели ARIMA, а сравнительные преимущества продукции определены с помощью индекса выявленных сравнительных преимуществ Балассы (RCA). На основе проведённого исследования разработаны научно обоснованные рекомендации по диверсификации экспорта сельскохозяйственной продукции по товарным группам и географическим направлениям, а также по определению приоритетных экспортных товаров и перспективных зарубежных рынков.

Ключевые слова: экспорт сельскохозяйственной продукции, диверсификация экспорта, внешние рынки, экспортный потенциал, индекс выявленных сравнительных преимуществ (RCA), модель ARIMA, коэффициент вариации, конкурентоспособность, география экспорта.

Abstract. This article examines the issues of diversifying Uzbekistan's agricultural exports and enhancing their export potential. The study evaluates the export structure, international competitiveness of agricultural products, and promising foreign markets using international trade data at the 4-digit HS code level for the period 2010-2024. The stability of import demand in foreign markets is assessed using the coefficient of variation (CV), future import dynamics are forecasted through the ARIMA model, and the comparative advantage of products is determined using the Balassa Revealed Comparative Advantage (RCA) index. Based on the findings, scientifically grounded recommendations are proposed for diversifying agricultural exports by product and destination markets, as well as for identifying priority export products and promising foreign markets.

Keywords: agricultural exports, export diversification, foreign markets, export potential, revealed comparative advantage (RCA), ARIMA model, coefficient of variation, competitiveness, export geography.

KIRISH

Qishloq xo‘jaligi iqtisodiy o‘sish, oziq-ovqat xavfsizligi va aholi bandligini ta‘minlovchi muhim tarmoqlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, rivojlanayotgan





mamlakatlarda qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksporti valyuta tushumlarini ko'paytirish, tashqi savdo balansini yaxshilash, qishloq hududlarida daromad va bandlikni oshirish hamda iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyat ega.

2024-yilda global qishloq xo'jaligi bozorining hajmi qariyb 4,6 trln AQSH dollarini tashkil etgan bo'lib, 2029-yilgacha o'rtacha 3,7-3,8 foiz yillik sur'atlarda o'sishi prognoz qilinmoqda[1].

Biroq, geosiyosiy ziddiyatlar, iqlim o'zgarishi, transport-logistika xarajatlarining oshishi, ta'minot zanjirlaridagi uzilishlar hamda xalqaro sanitariya va fitosanitariya talablarining kuchayishi global qishloq xo'jaligi eksport faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli eksportni geografik va mahsulot tarkibi bo'yicha diversifikatsiya qilish, mahsulotlarni chuqur qayta ishlash hamda yuqori qo'shilgan qiymatli eksportni rivojlantirish xalqaro raqobatbardoshlikni oshirishning asosiy omillaridan biriga aylangan.

O'zbekistonda ham qishloq xo'jaligi iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlaridan biri bo'lib, meva-sabzavot, uzum, poliz mahsulotlari va boshqa agrar mahsulotlarni eksport qilish bo'yicha katta salohiyat mavjud. Biroq logistika infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi, saqlash va qayta ishlash quvvatlarining cheklanganligi, xalqaro standartlarga moslashishdagi muammolar, suv resurslari taqchilligi hamda yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ulushining pastligi eksport samaradorligini cheklab kelmoqda. Mazkur sharoitda qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportining samaradorligini oshirish, eksport tarkibini diversifikatsiya qilish va yangi tashqi bozorlarga chiqish mexanizmlarini takomillashtirish ilmiy hamda amaliy jihatdan dolzarb vazifa hisoblanadi. Bu borada mamlakatimizda bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston - 2030" strategiyasida qishloq xo'jaligi eksportini rivojlantirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Xususan, 54-maqсад doirasida 2030-yilgacha qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportini 10 mlrd AQSH dollariga yetkazish, hududlarda yillik 2,5 mln tonna quvvatga ega 100 ta yangi agrologistika markazini tashkil etish hamda ularning eksport salohiyatini 1 mlrd AQSH dollariga yetkazish vazifalari belgilangan. Mazkur maqsadlarga muvofiq, 2025-2026 yillarda qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportini kengaytirish va qo'shilgan qiymat zanjirini rivojlantirish bo'yicha aniq maqsadli ko'rsatkichlar tasdiqlandi. Jumladan, 2025-yilda meva-sabzavot va oziq-ovqat mahsulotlari eksportini 3,5 mlrd AQSH dollariga yetkazish, 8 ta davlatga 30 turdagi yangi mahsulotlarni eksport qilish uchun fitosanitariya ruxsatnomalarini olish, istiqbolli bozorlarga 2025-yilda 442 mln AQSH dollari, 2026-yilda esa 575 mln AQSH dollari miqdorida meva-sabzavot mahsulotlari eksportini amalga oshirish rejalashtirilgan. Shuningdek, 2,1 mln tonna meva-sabzavot mahsulotlari uchun qadoqlash quvvatlarini yaratishga qaratilgan 40,5 mln AQSH dollari miqdoridagi investitsiya loyihalarini amalga oshirish ko'zda tutilgan [2].





Mazkur strategik vazifalarni amalga oshirish qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirish, eksport geografiyasi va mahsulot tarkibini diversifikatsiya qilish, zamonaviy logistika va qayta ishlash infratuzilmasini rivojlantirish hamda yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar eksportini kengaytirishni taqozo etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportining iqtisodiy o'sish va makroiqtisodiy barqarorlikka ta'siri xalqaro iqtisodiyotda keng o'rganilgan yo'nalishlardan biridir. Eksportga asoslangan iqtisodiy o'sish nazariyasiga ko'ra, eksportning kengayishi ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi va resurslardan foydalanish darajasini yaxshilaydi. B. Balassa (1978).va G. Feder (1983). eksport hajmining ortishi mehnat unumdorligi va yalpi ichki mahsulot o'sishini rag'batlantirishini empirik jihatdan asoslab bergan [3-4]. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportining o'ziga xos xususiyatlari K. Anderson va W. Martin (2005, 2006) tomonidan chuqur tahlil qilingan. Mualliflar savdo liberallasuvi agrar eksportga ixtisoslashgan mamlakatlarda ishlab chiqarish hajmi, fermerlar daromadi va eksport tushumlarini sezilarli oshirishini qayd etgan [5]. Eksportning iqtisodiy o'sishga ta'sirida mahsulot tarkibi muhim omil hisoblanadi. R.Hausmann, J.Hwang va D.Rodrik (2007) yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar eksport qiluvchi mamlakatlarda iqtisodiy o'sish sur'atlari yuqoriroq bo'lishini isbotlagan. Shu sababli qishloq xo'jaligi mahsulotlarini xomashyo ko'rinishida emas, balki chuqur qayta ishlangan va yuqori qiymatga ega mahsulot sifatida eksport qilish iqtisodiy samaradorlikni oshiradi [6].

Eksportning barqaror iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini o'rgangan O.Cadot, C.Carrère va V.Strauss-Kahn (2011) eksportni mahsulot va bozorlar bo'yicha diversifikatsiya qilish tashqi talabdagi o'zgarishlar ta'sirini kamaytirishini hamda eksport tushumlarining barqarorligini oshirishini ko'rsatgan [7]. M.Bacchetta, M.Jansen va R. Piermartini (2009) esa geografik diversifikatsiya tashqi iqtisodiy shoklarga nisbatan iqtisodiyotning moslashuvchanligini kuchaytirishini asoslagan [8]. B. Minten, L. Randrianarison va J. Swinnen (2017) logistika, sertifikatlash va global taqsimot tarmoqlariga integratsiyalashuv, shuningdek, fermerlarni kooperatsiya va davlat qo'llab-quvvatlashi eksportni rivojlantirishning muhim shartlari ekanligini qayd etganlar [9]. P. Bastos va J. Silva (2010) yangi geografik bozorlarga chiqish eksport daromadlarini barqarorlashtirishini ko'rsatgan bo'lsa [10], G. Gereffi, J. Humphrey va T. Sturgeon (2005) global qiymat zanjirlariga integratsiyalashuv hamda yuqori qo'shilgan qiymatli qayta ishlangan mahsulotlar eksportini kengaytirish eksport samaradorligini oshirishini asoslab berganlar [11].

Yuqoridagi ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksporti iqtisodiy o'sish va makroiqtisodiy barqarorlikka ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Biroq ushbu ta'sir eksport hajmiga emas, balki mahsulotlarning qo'shilgan qiymati, eksportning geografik va mahsulot diversifikatsiyasi, logistika samaradorligi, innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda xalqaro





standartlarga moslashish darajasiga bevosita bog'liq. Shu bois, O'zbekiston qishloq xo'jaligi eksporti samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi.

Mahalliy tadqiqotchilardan Sh.N.Otamurodov eksport diversifikatsiyasida yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ulushini oshirish va yangi bozorlarda uzoq muddatli pozitsiyani mustahkamlash zarurligini ta'kidlaydi [12]. Z.K.Kusharov va T.T.Turgunov (2023) eksport bozorlarini ekonometrik modellar asosida prognozlashning ahamiyatini ko'rsatgan bo'lsa [13], A.R.Abdirayimov va N.S.Muminov (2023) infratuzilmani rivojlantirish, sifat standartlarini joriy etish va davlat qo'llab-quvvatlash choralari kuchaytirishni eksport samaradorligining asosiy omillari sifatida baholaganlar [14]. N.N.Eshqulova (2024) esa kichik va o'rta biznesni moliyaviy hamda institutsional qo'llab-quvvatlash, ularning tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish eksportni diversifikatsiya qilishning muhim yo'nalishi ekanligini ta'kidlaydi [15].


TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportini diversifikatsiya qilish va istiqbolli tashqi bozorlarni aniqlash bo'yicha yetakchi mahalliy hamda xorijiy olimlarning ilmiy tadqiqotlari o'rganildi. Tadqiqotda xalqaro savdo statistika ma'lumotlarini taqqoslash, guruhlash, iqtisodiy-statistik, mantiqiy va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xalqaro raqobatbardoshligini baholashda Balassaning aniqlangan qiyosiy ustunlik indeksi (RCA), tashqi bozorlardagi import talabining barqarorligini aniqlashda variatsiya koeffitsiyenti (CV), import hajmlarining istiqboldagi dinamikasini prognozlashda esa ARIMA modelidan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi yillarda mamlakatimizda tashqi savdoni rivojlantirish va diversifikatsiya qilish maqsadida, eksportbop qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirilib, tashqi bozorlarda o'z o'rniga ega bo'lmoqda. Statistik ma'lumotlarga qaraganda, 2010-2025 yillarda O'zbekistonning qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari eksport hajmi 2010-yildagi 1 056,2 mln AQSH dollaridan 2025-yilda 2 944,7 mln AQSH dollariga yetib, qariyb 2,8 barobar oshgan. Shu bilan birga, import hajmi 476,6 mln AQSH dollaridan 4 563,0 mln AQSH dollarigacha o'sib, qariyb 9,6 barobar ko'paygan. Natijada tashqi savdo saldosida 2010-yildagi 579,6 mln AQSH dollari miqdoridagi ijobiy ko'rsatkichdan 2015-yilda -74,6 mln AQSH dollariga, 2024-yilda -1 520,7 mln AQSH dollariga va 2025-yilda 1 618,3 mln AQSH dollarigacha yomonlashgan. Bu holat eksport hajmi o'sishiga qaramasdan, importning yuqori sur'atlarda kengayishi tashqi savdo muvozanatiga salbiy ta'sir ko'rsatayotganini anglatadi. Shu bois qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportini diversifikatsiya qilish, yuqori qo'shilgan qiymatli qayta ishlangan mahsulotlar ulushini oshirish hamda import o'rnini bosuvchi ishlab chiqarishni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi (1-rasm).





1-rasm. Tashqi savdoda qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari hajmi 2010-2025 y.y [16]

2025 yilda O'zbekistonning qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari eksportida sabzavot va mevalar 2 194,8 mln AQSH dollar miqdorida bo'lib, oziq-ovqat mahsulotlarining qariyb 74,5% ini tashkil etgan. Keyingi o'rinlarda donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar (558,5 mln AQSH dollar) hamda sut mahsulotlari va parranda tuxumlari (70,0 mln AQSH dollar) qayd etilgan. Import tarkibida esa donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar (1 058,9 mln AQSH dollar) hamda go'sht va go'sht mahsulotlari (868,8 mln AQSH dollar) yetakchilik qilgan. Shuningdek, shakar va qandolat mahsulotlari (578,9 mln AQSH dollar), kofe, choy va ziravorlar (518,9 mln AQSH dollar) import hajmi ham yuqori bo'lgan. Eksport tarkibida asosan yangi meva-sabzavot mahsulotlari ustunlik qilsa, importda aholi iste'moli va oziq-ovqat sanoati uchun muhim bo'lgan don, go'sht va shakar mahsulotlarining yuqori ulushi saqlanib qolmoqda. Bu esa eksport tarkibini yuqori qo'shilgan qiymatli qayta ishlangan mahsulotlar hisobiga diversifikatsiya qilish va import o'rnini bosuvchi ishlab chiqarishni kengaytirish zarurligini ko'rsatadi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari bo'yicha O'zbekistonning raqobat ustunligiga ega tovarlarini aniqlash, ular uchun talab barqaror va yuqori o'sish salohiyatiga ega tashqi bozorlarni tanlash hamda eksportni diversifikatsiya qilishning ustuvor mahsulot-bozor yo'nalishlarini belgilash maqsadida tadqiqot olib borildi.

Tadqiqot doirasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportini diversifikatsiya qilishning ustuvor mahsulot va bozor yo'nalishlarini aniqlash bo'yicha kompleks metodik yondashuv ishlab chiqildi. Bunda mahsulotlarni saralashda O'zbekiston qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportida yuqori o'sish sur'atlarini namoyon etayotgan tovar guruhlari tanlab olindi hamda ular uchun istiqbolli tashqi bozorlarni baholash maqsadida 2010-2024 yillardagi 4 raqamli HS kod darajasidagi xalqaro import ma'lumotlaridan foydalanildi. Tashqi bozorlarning jozibadorligi va barqarorligini baholash uchun import talabining o'zgaruvchanligi variatsiya koeffitsiyenti (CV) orqali aniqlandi, import hajmlarining kelgusi





dinamikasi esa ARIMA modellari asosida prognoz qilindi. Shuningdek, O'zbekistonning qishloq xo'jaligi mahsulotlari bo'yicha tashqi bozorlardagi raqobat pozitsiyalarini baholash uchun aniqlangan qiyosiy ustunlik indeksi (RCA) hisoblandi (1-formula).

Tadqiqotda eng ko'p qo'llangan ARIMA(1,1,1) modeli quyidagicha ifodalandi:

$$\Delta Y_t = C + \phi_1 \Delta Y_{t-1} + \theta_1 \varepsilon_{t-1} + \varepsilon_t \quad (1)$$

Bu yerda,

ΔY_t - differensiallashgan import hajmi;

C - konstanta;


ϕ_1 – autoregressiya koeffitsiyenti;

θ_1 - moving average koeffitsiyenti;

ε_t — tasodifiy xatolik

2003-2024 yillar ma'lumotlari asosida o'tkazilgan ARIMA modeli prognoz natijalari qishloq xo'jaligi mahsulotlari bo'yicha tashqi bozorlarda import talabining kelgusi yillarda ham o'sish tendensiyasi saqlanib qolishini ko'rsatdi.

Eng yuqori o'sish sur'atlari Qozog'iston (398), Saudiya Arabistoni (682) va Xitoy (156) bozorlarida kuzatilmoqda. Xususan, Qozog'iston bozorida quritilgan sabzavotlar (HS 0712), boshqa sabzavotlar (HS 0709) hamda qayta ishlangan meva-sabzavot mahsulotlari (HS 2007) importi 2030 yilgacha 80-155 foizga o'sishi prognoz qilingan. Saudiya Arabistonida boshqa sabzavotlar (HS 0709), uzum (HS 0806), quritilgan mevalar (HS 0813) va qayta ishlangan mahsulotlar (HS 2007) bo'yicha 50-105 foizlik o'sish kutilmoqda.



2-rasm. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari bo'yicha istiqbolli tashqi bozorlarda importning 2030 yilgacha prognoz ko'rsatkichlari





Xitoy bozorida ham qayta ishlangan mahsulotlar (HS 2007 va HS 2009), quritilgan mevalar (HS 0813) hamda muzlatilgan meva-sabzavotlar (HS 0811) bo'yicha import hajmi 25-37 foizga o'sishi prognoz qilingan. Natijalar Xitoy bozorining istiqbolli ekanligini ko'rsatadi. Germaniya (276) va Rossiya (643) bozorlarida o'sish sur'atlari nisbatan pastroq bo'lsa-da, aksariyat mahsulotlar bo'yicha ijobiy o'sish saqlanib qolmoqda. Germaniyada mahsulotlar kesimida import o'sishi asosan 8-20 foiz, Rossiyada esa 11-26 foiz atrofida baholangan (2-rasm).

Bu ushbu bozorlarning uzoq muddatli va ishonchli eksport yo'nalishlari ekanligini ko'rsatadi. BAA (784) bozorida uzum (HS 0806), quritilgan mevalar (HS 0813) va qayta ishlangan meva-sabzavot mahsulotlari (HS 2007, HS 2009) bo'yicha talabning 20-85 foizga o'sishi kutilmoqda. Bu Yaqin Sharq bozorlarida qayta ishlangan va yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlarga talab ortib borayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ayrim mahsulotlar bo'yicha salbiy prognozlar ham aniqlandi. Masalan, Xitoyda uzum (HS 0806), Germaniyada olma va nok (HS 0808), Rossiyada meva-sabzavot konservalari (HS 2007), Saudiya Arabistoni va BAAda yangi pomidorlar (HS 0702) importining qisqarishi prognoz qilingan. Bu holat mazkur bozorlarda raqobat kuchayishi yoki talab tarkibining o'zgarishi bilan izohlanishi mumkin.

Shuningdek, **mean_imp** ko'rsatkichi tahlil davridagi o'rtacha import hajmini, **sd_imp** esa import hajmining standart og'ishini bildiradi. Ushbu ko'rsatkichlar asosida hisobland (2-3 formula).

(2)

$$CV = \frac{sd_imp}{mean_imp}$$

(3)

$$f_{growth_{24-30}} = \frac{f_{2030} - imp_{2024}}{imp_{2024}} \times 100$$

Bu yerda, *imp2024* - bazaviy (joriy) qiymat, *f2030* - prognoz qilingan qiymat, *fgrowth_24_30* - prognoz bo'yicha o'sish foizi hisoblanadi.

Taklif etilgan yondashuvning o'ziga xosligi shundaki, u qishloq xo'jaligi mahsulotlari uchun tashqi bozorlarni baholashda faqat mavjud eksport hajmi yoki raqobat ustunligi bilan cheklanmasdan, import talabining barqarorligi, bozorning kelgusi o'sish salohiyati hamda O'zbekistonning mazkur mahsulotlar bo'yicha xalqaro raqobatbardoshligini bir vaqtning o'zida hisobga oladi. Natijada qishloq xo'jaligi mahsulotlari uchun eng istiqbolli «mahsulot-bozor» kombinatsiyalari aniqlanib, eksport geografiyasini diversifikatsiya qilish, yuqori qo'shilgan qiymatli qayta ishlangan agrar mahsulotlar eksport ulushini oshirish va eksportning barqaror o'sishini ta'minlash bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqildi. 2003-2024 yillar ma'lumotlari asosida o'tkazilgan tahlil natijalari qishloq xo'jaligi mahsulotlari bo'yicha tashqi bozorlarda talab barqarorligi mamlakatlar kesimida farq qilishini ko'rsatdi. Germaniya (276) deyarli barcha mahsulotlar bo'yicha eng barqaror bozor sifatida ajralib turib, variatsiya koeffitsiyenti asosan 0,12-0,33 oralig'ida shakllangan. Rossiya (643) va Saudiya





Arabistoni (682) bozorlarida ham uzum (0806), sitrus mevalar (0805), quritilgan mevalar (0813) va sharbatlar (2009) bo'yicha nisbatan barqaror talab kuzatildi. BAA (784) bozorida import hajmlari yuqori bo'lishi bilan birga talabning barqarorligi o'rtacha darajada saqlanmoqda.

Shuningdek, O'zbekistonning qishloq xo'jaligi mahsulotlari bo'yicha tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini baholash maqsadida Balassa tomonidan taklif etilgan aniqlangan qiyosiy ustunlik indeksi RCA (Revealed Comparative Advantage) hisoblandi. (4-formula).

$$RCA_i = \frac{\frac{X_{ij}}{X_j}}{\frac{X_{iw}}{X_w}}$$

Bu yerda:

X_{ij} – O'zbekistonning i -turdagi qishloq xo'jaligi mahsuloti eksporti;

X_j – O'zbekistonning jami eksporti;

X_{iw} – jahon bo'yicha i -turdagi qishloq xo'jaligi mahsuloti eksporti;

X_w – jahonning jami eksporti.

Tadqiqot natijalari O'zbekiston qishloq xo'jaligi eksportida eng yuqori raqobat ustunligi uzum (HS 0806) va quritilgan mevalar (HS 0813) hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatdi. Xususan, uzum (HS 0806) bo'yicha RCA koeffitsiyenti 2017–2024 yillarda 2,89–3,73 oralig'ida bo'lib, 2024 yilda 3,29 ni tashkil etdi. Quritilgan mevalar (HS 0813) bo'yicha RCA 2023 yilda 3,62 ga yetib, 2024 yilda 2,36 ni tashkil etdi. Muzlatilgan meva va sabzavotlar (HS 0811) bo'yicha RCA 2017 yildagi 0,13 dan 2024 yilda 0,50 gacha oshib, ushbu mahsulotlarning eksport salohiyati ortib borayotganini ko'rsatdi. Aksincha, sitrus mevalar (HS 0805) va olma-nok (HS 0808) bo'yicha RCA ko'rsatkichlari 2024 yilda mos ravishda 0,04 va 0,24 ni tashkil etib, xalqaro raqobat ustunligi shakllanmaganligini ko'rsatdi (1-jadval).

1-jadval

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari bo'yicha RCA ko'rsatkichlarining o'rtacha qiymatlari (2003-2024 yy.)

№	HS kodi va nomi	O'rtacha RCA	Baholash
1.	0806 (Yangi uzum)	3.24	Yuqori qiyosiy ustunlik, eksportni kengaytirish maqsadga muvofiq
2.	0813 (Quritilgan mevalar)	2.33	Yuqori qiyosiy ustunlik, istiqbolli eksport mahsuloti
3.	0811 (Muzlatilgan mevalar va yong'oqlar)	0.23	Qiyosiy ustunlik mavjud emas, raqobatbardoshlikni oshirish zarur
4.	0808 (Olma, nok va behi)	0.22	Qiyosiy ustunlik mavjud emas, eksport salohiyatini rivojlantirish talab etiladi
5.	0805 (Sitrus mevalar)	0.07	Juda past qiyosiy ustunlik, eksport istiqboli cheklangan





Tahlillar qishloq xo'jaligi eksportida mahsulot va bozorlar diversifikatsiyasi yetarli darajada emasligini, eksportning katta qismi Rossiya (643) va Qozog'iston (398) bozorlariga to'g'ri kelayotganini aniqladi. Shu bilan birga, uzum (HS 0806), quritilgan mevalar (HS 0813), dukkaklilar, sabzavotlar va yong'oqlar bo'yicha eksport salohiyati hamda tashqi bozorlarda barqaror talab mavjudligi tasdiqlandi. ARIMA prognozlarini Germaniya (276), Turkiya (792), BAA (784), Qozog'iston (398) va boshqa istiqbolli bozorlarda ushbu mahsulotlarga talabning o'sishi davom etishini ko'rsatdi. Shu asosda qisqa muddatda raqobatbardosh mahsulotlar hisobidan yangi bozorlarga chiqish, uzoq muddatda esa qayta ishlangan va yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ulushini oshirish orqali agroeksport diversifikatsiyasini chuqurlashtirish maqsadga muvofiqligi asoslandi.

Xitoy (156) va Qozog'iston (398) bozorlarida esa ayrim mahsulotlar bo'yicha variatsiya koeffitsiyentining yuqoriligi ($CV > 0,8$) talabning o'zgaruvchanligini ko'rsatadi. Biroq mazkur bozorlar import hajmi jihatidan yirik hisoblangani sababli eksport diversifikatsiyasi nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa uzum (0806), quritilgan mevalar (0813), meva-sabzavot sharbatlari (2009) hamda quritilgan sabzavotlar (0712) bo'yicha barqaror talab shakllangani ushbu mahsulotlarni eksport diversifikatsiyasining ustuvor yo'nalishlari sifatida baholash imkonini beradi. (2-jadval)

2-jadval

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari bo'yicha tashqi bozorlar barqarorligining umumlashtirilgan bahosi

№	Bozor	Barqaror mahsulotlar HS kodlari	Barqarorlik bahosi
1.	Germaniya	0702, 0709, 0712, 0805, 0806, 0808, 0811, 0813, 2007, 2009	Yuqori
2.	Rossiya	0805, 0806, 0808, 0813, 2009	Yuqori
3.	Saudiya Arabistoni	0805, 0806, 0808, 0813	O'rtacha-yuqori
4.	BAA	0806, 0808, 0813, 2009	O'rtacha
5.	Xitoy	0806, 0813, 2009	O'rtacha
6.	Qozog'iston	0805, 0806, 2009	O'rtacha-past

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari O'zbekiston qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksporti so'nggi yillarda barqaror o'sib borayotgan bo'lsa-da, importning yuqori sur'atlarda o'sishi tashqi savdo saldosinga salbiylashishiga olib kelayotganini ko'rsatdi. Eksport tarkibida meva-sabzavot mahsulotlari ustunlik qilayotgan bo'lsa, importda don, go'sht va shakar mahsulotlarining yuqori ulushi saqlanib qolmoqda. RCA tahlili yangi uzum (HS 0806) va quritilgan mevalar (HS 0813) bo'yicha O'zbekistonning yuqori qiyosiy ustunlikka ega ekanligini tasdiqladi. CV va ARIMA modellari asosida Germaniya, BAA, Saudiya Arabistoni, Qozog'iston va Xitoy bozorlari ushbu mahsulotlar uchun barqaror va istiqbolli eksport yo'nalishlari ekanligi aniqlandi. Natijalar qishloq xo'jaligi eksportini mahsulot va





bozorlar bo'yicha diversifikatsiya qilish, yuqori qo'shilgan qiymatli qayta ishlangan mahsulotlar ulushini oshirish hamda yangi eksport bozorlari geografiasini kengaytirish eksportning barqaror o'sishini ta'minlashning asosiy yo'nalishlari ekanligini ko'rsatdi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, O'zbekiston qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportini rivojlantirishda birinchi navbatda qiyosiy ustunlikka ega mahsulotlar, xususan yangi uzum va quritilgan mevalar eksportini kengaytirishga ustuvor ahamiyat qaratish maqsadga muvofiq. Ushbu mahsulotlarni Germaniya, BAA, Saudiya Arabistoni, Xitoy va Qozog'iston kabi talabi barqaror hamda o'sish salohiyati yuqori bozorlariga yo'naltirish eksport samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, eksport tarkibida yangi meva-sabzavot mahsulotlari ulushini bosqichma-bosqich kamaytirib, ularning o'rniga sharbatlar, quritilgan, muzlatilgan va konservalangan mahsulotlar kabi yuqori qo'shilgan qiymatli qayta ishlangan mahsulotlar ulushini oshirish zarur.

Buning uchun zamonaviy agrologistika infratuzilmasini, sovutish va qadoqlash tizimlarini rivojlantirish, mahsulotlarni Yaxshi qishloq xo'jaligi amaliyoti xalqaro standarti G.A.P (Good Agricultural Practices), Havflarni tahlil qilish va muhim nazorat nuqtalari tizimi HACCP (Hazard Analysis and Critical Control Points) va Oziq-ovqat xavfsizligini boshqarish tizimi xalqaro standarti ISO 22000 (Food Safety Management Systems) kabi xalqaro standartlar asosida sertifikatlashni kengaytirish hamda eksport qiluvchi korxonalarni marketing va moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish lozim. Shuningdek, eksportni rejalashtirishda tashqi bozorlardagi talabning barqarorligi va o'sish tendensiyalarini muntazam baholab borish orqali eksport geografiasini diversifikatsiya qilish va yangi istiqbolli bozorlarga kirishni jadallashtirish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Dunyo mamlakatlari statistika portali <https://www.statista.com/>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-27-son "O'zbekiston-2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid Davlat dasturi to'g'risida"gi Farmoni.
3. Balassa B. Exports and Economic Growth: Further Evidence // Journal of Development Economics. – 1978. – Vol. 5, No. 2. – P. 181–189.
4. Feder G. On Exports and Economic Growth // Journal of Development Economics. – 1983. - Vol. 12, No. 1-2. - P. 59-73.
5. Anderson K., Martin W. Agricultural Trade Reform and the Doha Development Agenda. - Washington, DC: World Bank, 2005. – 574 p.
6. Hausmann R., Hwang J., Rodrik D. What You Export Matters // Journal of Economic Growth. - 2007. - Vol. 12, No. 1. - P. 1–25.
7. Cadot, O., Carrère, C., & Strauss-Kahn, V. (2011). Export Diversification: What's Behind the Hump? The Review of Economics and Statistics, 93(2), 590-605.





8. Bacchetta M., Jansen M., Piermartini R. et al. Trade and Employment: Challenges for Policy Research. - Geneva: World Trade Organization, International Labour Office, 2009. – 716 p.
9. Minten, B., Randrianarison, L., & Swinnen, J. (2017). Global Value Chains, Agricultural Production and Poverty Reduction. World Bank Research Observer, 32(1), 134-160.
10. Bastos, P., & Silva, J. (2010). The Quality of a Firm's Exports: Where You Export to Matters. Journal of International Economics, 82(1), 99-111.
11. Gereffi, G., Humphrey, J., & Sturgeon, T. (2005). The Governance of Global Value Chains. Review of International Political Economy, 12(1), 78-104.
12. Sh.N.Otamurodov “O‘zbekiston eksporti diversifikatsiyasining zamonaviy muammolari” “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar”(Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali [Tom 10 № 4 \(2022\)](https://doi.org/10.55439/EIT/vol10_iss4/a36) bb. 355-364 https://doi.org/10.55439/EIT/vol10_iss4/a36
13. Kusharov Z.K., Turgunov T.T. Development of the fruit and vegetable network using econometric models analysis and forecast // Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2023. – №. 8 (20). – C. 487-494.
14. Abdirayimov A. R., Muminov N. S. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini eksport salohiyatini oshirishda vujudga kelayotgan muammolar va ularning yechimlari // Academic research in educational sciences. – 2023. – T. 4. – №. 1. – C. 167-173.
15. Eshqulova N. O‘zbekiston eksport salohiyatidan samarali foydalanishda kichik biznesning ahamiyatini oshirish yo‘llari // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. – 2024. – T. 2. – №. 6. – C. 49-59.
16. O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo‘mitasi ochiq ma’lumotlari rasmiy sayt. – URL: <https://www.stat.uz/>
17. UN COMTRADE va ITC statistika ma’lumotlari.



2026-yil, iyul. №7-son.

Mas'ul muharrir: Beglayev Uchqun

Musahhih: Boltayev Nurali

Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru

Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal

Telefon raqami: +998939018320, +998934393000

Jurnal rasmiy sayti: <https://www.agrobiznesjournal.uz>

"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.



"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №083688

**Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani,
Universitet ko'chasi, 2-uy**